



@buxdu_uz




@buxdu1




@buxdu1



www.buxdu.uz



E-ISSN 2181-1466



ISSN 2181-6875

5/2024

Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University



5/2024

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTI



BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal

2024, № 5, aprel

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha, **tarix** fanlari bo'yicha 2023 yil 29 avgustdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.

Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinnbosari: Rasulov To'lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul kotib: Shirinova Mexrigyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

Minin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)

Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

Mo'minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Durdiev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Umarov Baqo Bafoyevich, kimyo fanlari doktori, professor

Murodov G'ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor

Axmedova Shoira Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bekova Nazora Jo'rayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Hamroyeva Shahlo Mirjonovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Nigmatova Lola Xamidovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori

Jo'rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor

Xolliyev Askar Ergashovich, biologiya fanlari doktori, professor

Artikova Hafiza To'yumurodovna, biologiya fanlari doktori, professor

Hayitov Shavkat Ahmadovich, filologiya fanlari doktori, professor

Qurbanova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Ixtiyorova Gulnora Akmalovna, kimyo fanlari doktori, professor

Rasulov Zubaydullo Izomovich, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Mirzayev Shavkat Mustaqimovich, texnika fanlari doktori, professor

Samiyev Kamoliddin A'zamovich, texnika fanlari doktori, dotsent

Esanov Husniddin Qurbanovich, biologiya fanlari doktori, dotsent

Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, professor

Jumayev Jura, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

Klichev Oybek Abdurasulovich, tarix fanlari doktori, dotsent

G'aybulayeva Nafisa Izattullayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

ИНГЛИЗ-ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА АСПЕКТУАЛЛИК ПАРАДИГМАСИ ТАРКИБИ

Менглиева Мунира Бахтиёр қизи,
Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат
ўзбек тили ва адабиёти университети докторанти,
филология фанлари бўйича фалсафа доктори, PhD
tuniratmengliyeva@gmail.com
ORCID: 0000-0003-1800-7158

Аннотация. Муайян маънони ифодалашига хизмат қилувчи тил элементлари ўз таркибий ва функционал хусусиятига кўра турли сатҳларга мансуб. Шу сатҳлардан бирни ўлароқ морфологияда маъно ифодаловчи воситалардан энг салмоқлиси – феъл. Феъл иширик мазмуний майдон сифатида ҳам, шаклий бирлик сифатида ҳам доим тилишунослар дикъат марказида бўлиб келганлиги маълум. Унинг ҳар бир тилда тутган функционал ва семантик ўрни катта. Қандай қурилишга, қандай оҳанг ёки таркибга эга бўлмасин, ҳар бир тил структурасида феълнинг тутган ўрни фавқулодда муҳим. Маълумки, сўз туркumlарига ажратишда ҳар бир лексеманинг лексик-грамматик маъноси, лексик-грамматик турлари, грамматик категориялари ёки парадигмалари, гапдаги вазифаси инобатга олинади. Ўзбек тилида ҳам, инглиз тилида ҳам феъл ҳаракат, ҳолат, нутқий фаолият, ақтий фаолият ва қатор бошига маъноларни ифодалашига кўра турли лексик-семантик гурухларга бўлинади. Ҳар иккى тилда ҳам феъл деривацион хусусиятларини намоён этади, унинг замон, майл, нисбат ва бошига қатор грамматик категориялари мажсуд. Уибу маънолада инглиз-ўзбек тилларининг юқорида санаб ўтилсан феъл категориялари аспектуаллик парадигмаси сифатида қиёсланиб умумий ва фарқли жиҳатлар аниқланган.

Калим сўзлар: аспектуаллик, феъл, функционал-семантик майдон, замон, тарз, морфологик категория

СОСТАВ ПАРАДИГМЫ АСПЕКТУАЛЬНОСТИ В АНГЛО-УЗБЕКСКИХ ЯЗЫКАХ

Abstract. Linguistic components that express a certain meaning are classified into several levels based on their structural and functional properties. The verb is one of the most significant methods of expressing meaning in morphology. Linguists have long focused their attention on the verb, both as a wide semantic field and as a formal unit. It serves an essential functional and semantic purpose in the language of action. Regardless of its form, tone, or content, the verb plays a critical function in any language's structure. It is well understood that when categorizing words, the lexico-grammatical meaning of each lexeme, lexicogrammatical types, grammatical categories or paradigms, and sentence function are all considered. Both in Uzbek and English, verbs are classified into lexical-semantic categories based on their expression of action, state, speech activity, mental activity, and a variety of other meanings. In both languages, the verb contains derivational features, including tense, mood, person, and other grammatical categories. This article compares the verbal categories of English and Uzbek as a model of aspectuality, identifying similarities and differences.

Keywords: aspectuality, verb, functional-semantic field, tense, style, morphological category.

COMPOSITION OF THE PARADIGM OF ASPECTUALITY IN THE ENGLISH-UZBEK LANGUAGES

Аннотация. Языковые элементы, служащие для выражения определенного значения, по своим структурным и функциональным особенностям относятся к разным уровням. В качестве одного из этих уровней важнейшим средством выражения значения в морфологии является глагол. Известно, что глагол всегда находился в центре внимания лингвистов как как большое семантическое поле, так и как формальная единица. Он играет важную функциональную и семантическую роль в каждом языке. Независимо от его конструкции, тона и содержания, роль глагола чрезвычайно важна в структуре каждого языка. Известно, что при классификации слов учитываются лексико-грамматическое значение каждой лексемы, лексико-грамматические типы, грамматические категории или парадигмы, функция в предложении. Как в узбекском, так и в английском языке глаголы делятся на разные лексико-семантические группы по выражению действия, состояния, речевой

ANTROPONIMIK BIRLIKLARNING PRAGMALINGVISTIK XUSUSIYATLARI (N.Norqobilov hikoyalari matni asosida)

Hamroyeva Maftuna Rasulovna,

Buxoro davlat universiteti

O‘zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasi o‘qituvchisi, f.f.f.d. (PhD)

maftuna130193@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada antroponimik birliklarning o‘ziga xos xususiyatlari, badiiy asarda tutgan o‘rnini hamda ular muloqotda axborot tashuvchi asosiy unsurligi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, uslubiy vosita sifatidagi xususiyatlari Normurod Norqobilov hikoyalariidagi antroponimik birliklar vositasida ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: antroponimlar, badiiylik, badiiy asar, kishi nomlari, uslubiyat, badiiy uslub, adabiy til, badiiy til, borliq, familiya, taxallus, pragmatika, lingvistika.

PRAGMALINGUISTIC CHARACTERISTICS OF ANTHROPOONYMIC UNITS (based on the text of N. Norqabilov's stories)

Abstract. This article discusses the specific characteristics of anthroponymic units, their role in an artistic work, and their main information-carrying element in communication. Also, its characteristics as a methodological tool are revealed through anthroponymic units in Normurod Norqabilov's stories.

Keywords: anthroponyms, artistry, artistic work, personal names, methodology, artistic style, literary language, artistic language, existence, surname, pseudonym, pragmatics, linguistics.

ПРАГМАЛИГВИСТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА АНТРОПОНИМИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ (по тексту рассказов Н. Норгабилова)

Аннотация. В данной статье рассматриваются особенности антropонимических единиц, их роль в художественном произведении и их основной информационный элемент в общении. Также его характеристики как методологического инструмента раскрываются посредством антropонимических единиц в рассказах Нормурода Норгабилова.

Ключевые слова: антropонимы, художественность, художественное произведение, личные имена, методология, художественный стиль, литературный язык, художественный язык, бытие, фамилия, псевдоним, pragmatika, лингвистика.

Kirish. Atoqli otlar bir tur, bir guruhgaga mansub narsalardan bittasini ajratib olgan holda nomlaydi. Bunda ajratib olinayotgan narsa yoki obyektning unga nom berayotgan kishilar hayotiy ehtiyojlari uchun muhimligi, o‘sha obyektlarni boshqalarga nisbatan qandaydir farqli xususiyatlarga egaligi muhim rol o‘ynaydi. Ko‘rinadiki, atoqli otlar narsa va hodisalarimi, obyektlarni yangilab, donalab atash zaruriyati tufayli yuzaga keladi. Demak, narsa va hodisalarimi yangilab, donalab atoqli ot berib nomlash o‘ziga xos ehtiyoj, qonuniyat natijasidir.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Tilning onomastika sohasida mana shunday atoqli otlar sirasiga antroponimlar kiradi. Antroponim – bu insanni belgilash uchun xizmat qiladigan shaxsiy (atoqli) nom. Shaxsiy ismlardan tashqari, familiyalar, otasining ismi (yoki patronimlar), laqablar, taxalluslar, andronimlar, kriptonimlar (yashirin ismlar) ham mavjud bo‘lib, ularning barchasi inson identifikatorlari hisoblanadi. Antroponimlarning barcha turlari shaxsni atash va unga murojaat qilish imkoniyatidan foydalana olish vazifasini bajaradi.

Antroponimlarni bir necha sinflarga ajratish mumkin. Jumladan, milliy, hududiy, ijtimoiy, yoshga oid, jins (gender), diniy. Masalan, yuqorida keltirilgan xususiyatlarga ko‘ra Aziz antroponimi jinsi bo‘yicha erkak va etnik tomonidan o‘zbek tilida so‘zlashuvchi jamoaning a’zosi. Antroponimlarning boshqa vazifalariga tilning akkumulyativ, xalqning madaniyati haqidagi ma’lumotlarni saqlovchi vazifasini kiritish mumkin.

Normurod Norqobilov ijodida esa antroponimlar asarning badiiy qiymati, syujeti va mohiyatini ko‘rsatuvchi “ochqich” bo‘lib, muhim amaliy ahamiyatga ega ekanligi ilmiy-nazariy jihatdan asoslandi.

LINGUISTICS

Natijalar va muhokama. Adibning “Olim o‘g‘il” hikoyasida o‘n sakkizta antroponim qo‘llangan. Ijodkor asardagi barcha qahramonni nomlagan, ammo bosh qahramonga ism qo‘ymay uni “olim o‘g‘il” deya atagan. Chunki u olim bo‘lib kamolga yetadi. Yozuvchi unga maxsus nom bermaydi, ism orqali murojaat qilishdan ko‘ra ilmiy darajasi orqali nomlashda qahramonning ziyoliligini ta‘kidlash bilan birga asarning hayotiyligi ham ta‘minlangan. Adib haqiqiy, chin ilm sohibi uchun ism ahamiyatsiz ekanligi, asosiy mohiyat obrazning ilm kishisi bo‘lganligini ta‘kidlashga erishgan. “O‘g‘il” so‘zini keltirish orqali qahramonning ota-onasiga munosib farzand ekanligini uqtirgan: *Shovqinni eshitib, olim o‘g‘il sekin boshini ko‘tardi. Ko‘zi devor ortida harakatlanayotgan somon g‘aramiga tusharkan, olgan bilimi bu dargohda sariq chaqalik qimmatga ega emasligini favqulodda anglab yetganday, asta yulqinib darvoza tomon yurdi.*

Olim o‘g‘ilning otasi Shayman. E.Begmatovning “O‘zbek ismlari” kitobida quyidagicha izohlangan: “Shayman arabcha, din sardori degan ma‘noni bildiradi. Bu ism aslida Shayx Muhammad ismining qisqargani”. U asarda jiddiy, oxir-vazmin, haqiqiy o‘zbek otasi sifatida tasvirlangan: *O‘g‘lini ko‘rgach, odatiga xos jiddiy tarzda kampiriga im qoqdi. Hamisha o‘g‘li kelib ko‘rishmoqqa qo‘l cho‘zgandan keyingina o‘rnidan turib, bag‘riga bosardi uni. Ortiqcha hayajonu yalab yulqashni yomon ko‘radi u.*

Hikoyada Shayman cholning ulfatlari tasviriga e’tibor beradigan bo‘lsak, ular ko‘rinishi, gap-so‘zi bilan ismiga munosib obraz sifatida tasvirlangan. Mana shunday epizodlardan biri – O‘roq chol.

O‘roq o‘zbekcha ismlar sirasiga kiradi. Bu ism *ekin o‘rog i paytida tug‘ilgan bola yoki o‘roqdek o‘tkir, keskin, uzoq umrli bo‘lsin yoxud baxtiyor, shodon bola ma‘nolarini ifodalaydi.*

Hikoyadagi Sala cho‘tir antroponimi arabcha *maqtov, olqish, shukrona, salavot* degan ma‘noni bildiradi. Bu ism aslida Salovat shaklida bo‘ladi. Ammo hikoyada xalqchillik va soddalikni, so‘zlashuv uslubini namoyon etish uchun Sala shaklida qo‘llangan. U barcha o‘rinlarda Sala cho‘tir deb tilga olinadi. Shundan bilish mumkinki, uning yuzi cho‘tir: *Baytalday tirsillagan narsa, Sala cho‘tirni pisand qilarvardi.*

Asarda yuqoridaq kabi ism emas, laqab ma‘lum bir uslubiy vazifa bajaruvchi epizodlar hikoyaning xalqona tilda yozilganligini, undagi xalqchillikni ko‘rsatishda yordam beruvchi bir vosita ekanligini ko‘rish mumkin: *Hafta-o‘n kun shu sozda qimirlasa, bu yoqdan Vali guppi ozgina himmat qilsa, yetib qolar shu bilan.*

– *Shaymanvoy chatoq, – dedi xari chetida ilinib o‘tirgan Olim pakana.* *Shayman chol uning pachoq jussasiga boqarkan, O‘roq cholni haq deb bildi.* *Olim pakana* kichik jussasini bejo tebratib, qarshi gap qilmoqchi edi, *Qudrat chol vaqtida oraga suqildi.* Xuddi otasining o‘zi-ya. *Soli o‘pkayam* shunaqa hovliqma edi. O‘pkaligi tufayli otdan yiqilib o‘ldi-da. Ko‘cha boshida ikki qop somon yuklangan eshqagini oldiga solib kelayotgan *Haydar ko‘sса ko‘rindi.* *Shayman cholning ули олим bo‘pti, олим degani pulning isiga yotolmaydigan xalq bo‘ladi, shundayakan, chol qalindan qizg‘anmasin deb, ertalab ukasi Salom ko‘sadan ayttirib yuboribdi.* Ana shu *Qobul shapka* hech qaerda o‘qimagan, lekin tayog‘ini bir silkitsa, hovlisiga somoniym, xashagiyam tushib turibdi. Otasi *Uzoq guppi* somon tashvishi neligini bilmaydi. O‘qishga kelsak, anovu *Eshqul cho‘loqning bolasiyam o‘qigan-da.*

Yuqoridaq parchalarda qo‘llangan antroponimlar *guppi, pakana, o‘pka, ko‘sа, shapka, cho‘loq* kabi jismoniy, shakliy hamda xarakter-xususiyatidagi kamchiliklarni ko‘rsatuvchi birliklar bilan qo‘llanib, o‘ziga xos uslubiy vazifa bajargan. Bu orqali qahramon xarakteri, jamiyatdagi o‘rni, jismoniy kamchiligiga ishora qilingan. Asarga xalqona ruh baxsh etgan. Hikoyadagi boshqa epizodlarning nomlari ham asarning milliy ruhda yozilganligini ko‘rsatadi. Ulardan o‘rinli foydalanish esa asarda ifodalilik va ta‘sirchanlikni ta‘minlashga xizmat qiladi. Masalan, Sadir arabcha ism bo‘lib, *baland martabali, mansabдор boshliq, diniy rahnamо* degan lug‘aviy ma‘noga ega. Diniy rahnamo kishi, avvalambor, birovga ozor bermaydigan, samimiy kishi bo‘lishi lozim. Mana shu xususiyat bu epizodda namoyon bo‘lgan. Yozuvchi asarda bunga alohida urg‘u bergen: ...bir chekkada musicaday beozorgina o‘tirgan Sadir chol... Qodir arab tilidan olingan bo‘lib, qudratli, kuchli, barcha narsaga layoqatlari degan leksik ma‘no ifodalaydi. Bu nom Allohning sifatlaridan biri. Hikoyadagi bu obrazning ovozida xuddi shu xususiyatlarni kuzatish mumkin: – *Ana eshitdingizmi? – Qodir cholning ovozi davra uzra qalqigan umumxitobni bosib tushdi.*

Inson ismidagi ma‘no-mazmun nafaqat uning tashqi ko‘rinishida, balki xulqi, tabiatida ham namoyon bo‘lishi mumkin. Badiiy asarda yozuvchi qahramonning har bir xatti-harakatini inobatga olib, o‘z qahramonlarini nomlaydi. Bu orqali antroponimlar asar tilini, g‘oyasini o‘rganishda ma‘lum bir vazifa bajarishi mumkinligiga ishora qiladi. Ijodkorning “Ayriliq quvonchi” hikoyasida *Norboy, Bozor, Oysanam, Muso* kabi antroponimlar qo‘llangan. *Norboy* ismiga E.Begmatovning “O‘zbek ismlari” kitobida shunday izoh beriladi: “Badanida qizil xoli yoki qizillik belgisi bilan tug‘ilgan bola yoxud (bir o‘rkachli tuyadek) kuchli, qudratli. Shakllari: Norbek, Norboy, Norjon, Norxon”. Obraz ismining lug‘aviy ma‘nosiga hamohang tasvirlangan. *Unga qiyin, tengqurlari yo‘q, boyo‘g‘liday bo‘zrayib bir o‘zi qoldi.* Anglashiladiki, *Norboy* chol tengqurlariga nisbatan ko‘p umr ko‘radi. Adib antroponim orqali cholning jismonan baquvvat va ruhan tetik ekanligiga urg‘u bergen.

LINGUISTICS

Ma'lumki, o'zbek xalqi – azal-azaldan bolajon xalq. Allohdan rizq-nasiba bilan birga farzand va uning salomatligini so'raydi. Norboy chol ham Allohdan farzand so'raydi va uning ismini Bozor deb qo'yadi. Bu ism fors-tojikcha bo'lib, bozor kuni tug'ilgan bola yoki uyimiz bozor kabi bolalarga to'lsin degan ma'noda qo'yiladi. Obrazni nomlash orqali o'zbek xalqi mentalitetiga xos jihatlar va milliylik ko'rsatilgan. Bundan tashqari, bozordagi o'z ishining usta kishilar deganda raqobatga chidamli, kuch-qudratli, chaqqon, yuzko'zida jiddiylik aks etgan inson anglashiladi. Bu qahramon ham tashqi ko'rinishi jihatidan mana shunday tasvirlanadi: *Ba'zida do'nglikka to'rsillab-qursillab Bozor tog'asi chiqib keladi. Nega deganda, Bozor tog'asi jahldor odam. Ota faqat menga kerakmi-a? – deya baqiradi qo'llarini paxsa qilib. – Ana, qiziyam qarasin, yasanib-tusanib, to'yma-to'y yurguncha! Axir bir yangang qay biriga bo'sin, ro'zg'orga qarasinimi, yo... Qiynalib ketdi-ku u sho'rlik!*

Norboy cholning ikkinchi farzandi Muso. Bu ism yahudiylar payg'ambari Mase nomidan olingan bo'lib, ma'nosi turlicha izohlanadi: 1) qadimiy misrcha: bola, chaqaloq; 2) qadimgi yahudiycha: suvdan tortib chiqarib olingan; 3) arabcha: ustara, poki. Shakllari: Musobek, Musoboy, Musojon, Musoxon. Asarda bu ism Muso shaklida qo'llangan. Ma'lumki, kamtarlik, soddalik, taqvodorlik va halollik payg'ambarlarga xos xususiyat. Ota-onas farzandiga shunday mo'tabar zotlarning nomlarini yaxshilikka umid qilib qo'yadi. Asar qahramoni ham xuddi shunday fazilatlarga ega shaxs sifatida tasvirlanadi: *Muso avvalgidan ko'ra serqatnov, gohida o'zidek kansuqum, xushro'ygina ayoli bilan keladi. Muso sodda, mehri tovlanib pochchasining yelkasidan quchdi. Bu g'idi-bidlarning bir chetida aslida pochchasi turganini xayoliga ham keltirmaydi. Yomonqul tabiatan pismiq odam.*

Hikoyadagi Norboy cholning qizi – Oysanam. Bu nom o'zbekcha-arabcha ismlar turkumiga mansub bo'lib, *oydek go'zal, zebo qiz* degan ma'noni bildiradi. Ijodkorning bu qahramoni ismi jismi monand bo'limgan personajlardan biri sifatida tasvirlangan. Bu holatni asardagi quyidagi o'rinnarida kuzatish mumkin: – *Qarasin, beliga tosh tegmagan o'sha Oysanam semiz... enasi so'zga chechan ayol, gap deganlarini tandir boshidagi o'tinday qalashtirib tashlaydi. Uning qarshisida ammasining tajangtob qiyofasi namoyon bo'ladi.* Ammo antropomin ma'nosi personajdagi boshqa jihatlarda namoyon bo'lganini ko'rish mumkin: *Shu qiz tug'ilganida amma sifatida qanchalik quvormagandi u. Tuyg'ulari marvarid yanglig go'zal va serjilo edi.* Ko'rinnadiki, ism ma'nosi xarakter, tashqi ko'rinish, kiyinish yoxud so'zlashda namoyon bo'ladi.

Hikoyada tilga olingan Yomonqul ismi "O'zbek ismlari" kitobida quyidagicha izohlanadi: "Yomonqul (o'zbekcha) – chaqalojni yomon ko'zlardan asrash uchun unga ko'z tegmasin deb shunday ism beriladi". Ammo asarda bu obraz salbiy qahramon sifatida ko'rsatiladi: *Muso sodda, mehri tovlanib pochchasining yelkasidan quchadi. Bu g'idi-bidlarning bir chetida aslida pochchasi turganini xayoliga ham keltirmaydi. Yomonqul tabiatan pismiq odam.*

Demak, hayotda ba'zi yaxshi niyat bilan qo'yilgan ismlar kishi taqdiriga o'zining boshqa jihatlari, ma'nolari bilan ham ta'sir qilishi mumkin. Jumladan, Ergash ismli bola ota-onasi xohlaganidek yaxshilarga emas, yomonlarga ergashishi yoxud Yo'ldosh ismli bolaning og'a-inilariga emas, yomon odamlarga esh bo'lishi kabi. Hikoyada Sodiq. Mamarayim kabi epizodik obrazlar ham uchraydi. Sodiq arabcha, sadoqatli, rostgo'y, chin do'st degan ma'noni ifodalaydi. Mamarayim ismi esa aslida Muhammadrahim bo'lib, rahmdil, mehribon, muruvvatli degan ma'noni bildiradi. Odamlar tomonidan so'zlashuv uslubida ismni qisqartirib qo'llash nomning o'z mohiyati, ma'nosining "so'nishiga" olib keladi. Bu esa o'zbek ismlari fondiga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri sanaladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, o'zbek tilshunosligida onomastikaning antroponimlar yo'nalishi atroflicha o'rganilgan. Shaxsiy nomlar til va madaniy hodisalarining lingistik tavsiflariga taalluqli, chunki ular ma'lum bir tilning milliy mentalitetini aks ettirish qobiliyatiga ega. Antroponimlar madaniy va tarixiy hayotning rivojlanishini, shuningdek, muayyan til tashuvchilari bo'lgan xalqning milliy qadriyatlar tizimini ko'rsatuvchi amaliy vositadir.

ADABIYOTLAR:

1. Бегматов Э.А. Ўзбек исмлари изони. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2016. – 607 б.
2. Бегматов Э.А. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – 264 б.
3. Нордабилов. Н. Бўрон ўтган кун. – Тошкент: Шарқ, 2007. – 450 б.
4. Қаличев Э. Айний асарларида антропонимларнинг стилистик ҳусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1978, 4.
5. Hamroyeva M. BADIY ASAR MATNIDAGI ONOMASTIK BIRLIK LARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI TAHLILI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 41. – №. 41.
6. Rasulovna, H. M. THE LITERARY OF ANTHROPOONYMS. Chief Editor.



**"SCIENTIFIC REPORTS
OF BUKHARA STATE
UNIVERSITY"**

The journal was composed
in the Editorial and
Publishing Department of
Bukhara State University.

Editorial address:
Bukhara, 200117
Bukhara State University, main
building, 2nd floor, room 219.
Editorial and Publishing
Department.
<https://buxdu.uz/32-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/131/131-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/>
e-mail:
nashriyot_buxdu@buxdu.uz

Printing was permitted
30.05.2024 y. Paper format
60x84,1/8. Printed in express
printing method. Conditional
printing plate – 35,30.
Circulation 70. Order № 30.
Price is negotiable.
Published in the printing house
"BUKHARAHAMD PRINT" LLC
Address: Bukhara,
K.Murtazayev street, 344